

ADABIY OBZOR – JAHON ILMIY TAFAKKURINING TAHLILIIY VA NAZARIY MEXANIZMI

Jamolova Zilola Nizomovna,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Buxoro tumani 13-umumta'lim maktabi o'qituvchisi
E-mail: zilolajamolova92gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21932153>

Annotatsiya. Maqolada adabiy obzor (literary review) tushunchasining jahon ilmiy tafakkuridagi o'rni, shakllanish bosqichlari va nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. G'arb adabiyotshunosligida XVIII asrdan boshlab rivojlangan bu janrning tahliliy, nazariy va metodologik yo'nalishlari tahlil qilinadi.

Shuningdek, adabiy obzorning ilmiy tadqiqotdagi funksiyasi — mavjud manbalarni tanqidiy o'rganish, nazariy asos yaratish va yangi ilmiy g'oyalar uchun konseptual poydevor tayyorlash jarayoni sifatida izohlanadi. Maqolada “The Monthly Review”, “The Critical Review”, “Modern Language Review”, “PMLA” kabi nashrlarda shakllangan obzor an'analari misolida janrning ilmiy tafakkurdagi ahamiyati ko'rsatilgan. Xulosa sifatida adabiy obzor jahon adabiyotshunosligida ilmiy fikrni rivojlantiruvchi, tahlilni chuqurlashtiruvchi va metodologik izchillikni ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: adabiy obzor, nazariy asos, metodologiya, ilmiy tafakkur, tahlil, G'arb adabiyotshunosligi.

Аннотация В статье рассматривается понятие литературного обзора (literary review), его место в мировой научной мысли, этапы формирования и теоретико-методологические основы. Анализируются аналитическое, теоретическое и методологическое направления жанра, развивавшегося в западном литературоведении с XVIII века. Особое внимание уделено функции литературного обзора в научном исследовании — критическому изучению источников, формированию теоретической базы и созданию концептуального фундамента для новых научных идей. На примере журналов “The Monthly Review”, “The Critical Review”, “Modern Language Review”, “PMLA” показано значение жанра в развитии научного мышления. В заключение литературный обзор трактуется как основной механизм, обеспечивающий развитие научной мысли, углубление анализа и методологическую последовательность в мировой литературоведческой практике.

Ключевые слова: литературный обзор, literary review, теоретическая основа, методология, научное мышление, анализ, западное литературоведение.

Annotation. The article examines the concept of the literary review and its role in global scholarly thought, outlining its stages of development and theoretical-methodological foundations. The analytical, theoretical, and methodological dimensions of the genre, which emerged in Western literary studies in the eighteenth century, are analyzed. The study highlights the function of the literary review as a critical examination of sources, the establishment of a theoretical basis, and the creation of a conceptual foundation for new scientific ideas. Using journals such as “The Monthly Review”, “The Critical Review”, “Modern Language Review” and “PMLA” as examples, the article demonstrates the genre's significance in shaping scholarly reasoning. In conclusion, the literary review is interpreted as a key mechanism that fosters the development of scientific thought, deepens analytical practice, and ensures methodological consistency in world literary scholarship.

Keywords: literary review, theoretical foundation, methodology, scientific thought, analysis, Western literary studies.

Dunyo adabiyotida *adabiy obzor* (literary review) tushunchasi asosan g'arb adabiyotshunosligida shakllangan. Biroq mazmun jihatidan — ya'ni adabiy jarayonni umumlashtirish, yozuvchilar ijodiga nazariy yoki tanqidiy baho berish vazifasida — u deyarli barcha mamlakatlarda mavjud. Faqat atamaning nomlanishi va qo'llanilish shakli turlicha.

Turli davlatlarda adabiy obzor atamalarini jadvalda keltirish bu tushunchaning mazmunini tez va aniq solishtirish imkonini beradi, ilmiy ish va dissertatsiyalarda rasmiylik hamda izchillikni ta'minlaydi. Quyida “Literary Review” atamasi turli tillarda qanday nomlanishi berilgan:

Til / Mamlakat	Atama	Mazmuni va qo'llanilishi
-------------------	-------	--------------------------

Ingliz (UK/US)	<i>Literary review / Literature review</i>	1) Adabiy jarayon yoki asarlarni umumlashtiruvchi tanqidiy obzor. 2) Ilmiy maqola va dissertatsiyalarda “adabiyotlar sharhi” qismi sifatida ham ishlatiladi.
Fransuz	<i>Revue littéraire / Critique littéraire</i>	“Adabiy obzor” va “adabiy tanqid” ma’nosida. “La Revue Littéraire” kabi jurnallar mavjud.
Nemis	<i>Literaturübersicht / Literaturkritik / Literarische Rezension</i>	“Adabiy obzor”, “adabiy tanqid” va “kitob sharhi” ma’nosida qo’llanadi. Akademik matnlarda ham, jurnallarda ham keng ishlatiladi.
Rus	<i>Литературный обзор / Обзор литературы</i>	XIX asrdan boshlab Belinskiy, Dobrolyubov, Chernyshevskiyilar ijodida mustaqil tanqidiy janr sifatida shakllangan.
Turk	<i>Edebî inceleme / Edebî eleştiri / Edebî değerlendirme</i>	“Adabiy tahlil”, “adabiy tanqid”, “adabiy baholash” ma’nosida qo’llanadi.
O‘zbek	<i>Adabiy obzor</i>	Adabiyotshunoslik va tanqidning muhim janri sifatida qabul qilingan.
Arab	<i>Al-naqd al-adabî (النقد الأدبي) / al-murāja‘a al- adabiyya (المراجعة الأدبية)</i>	“Adabiy tanqid” yoki “adabiy obzor” ma’nosida qo’llanadi. Taha Husayn kabi olimlar amalda bu janrda ijod qilgan.
Fors	<i>Naqd-e adabî (نقد ادبی) / Barrasi-ye adabî (بررسی ادبی)</i>	“Adabiy tanqid”, “adabiy tahlil” tushunchalarida qo’llanadi.
Hind (Hindi/Urdu)	<i>Adabî jaiza (ادبی جائزہ) / Sāhityik samīkṣā (साहित्यिक समीक्षा)</i>	“Adabiy obzor”, “adabiy sharh” ma’nosida keng ishlatiladi.

Turli tillarda nomlanish farq qilsa-da, mazmun bir xil: *literary review* — xalqaro ilmiy muomalada eng ko‘p ishlatiladigan atama. U adabiyotshunoslikdagi tahliliy va tadqiqot yondashuvlarini belgilaydi hamda ilmiy jarayon uchun nazariy poydevor yaratadi.

Adabiy obzor (*literary review*) — bu ilmiy manbalarni tanqidiy o‘rganish, ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash va muammoning hozirgi holatini baholashga qaratilgan tahliliy jarayon. G‘arbda bu tushuncha XVIII asrdan boshlab shakllana boshlagan va bugun har bir dissertatsiya, maqola yoki monografiyaning ajralmas qismi sifatida tan olingan.

G‘arbda adabiy obzor dastlab jurnalistik tanqid shaklida vujudga keldi. XVIII asrda Angliyada nashr etilgan “*The Monthly Review*” va “*The Critical Review*” jurnallari kitoblarni tanqidiy tahlil qilish orqali obzor janrining dastlabki shaklini yaratdi. Shu davrda adabiy obzor yozuvchilar, o‘quvchilar va olimlar o‘rtasida ilmiy muloqotni yo‘lga qo‘yuvchi vosita sifatida qaraldi.

XIX asrda bu janr yanada mukammallashdi. Fransiya *Sainte-Beuve*, Angliya *Matthew Arnold*, AQShda *Edgar Allan Poe*, Germaniyada *Goethe* va *Schiller* atrofida tanqidiy maktablar adabiy obzorda nazariy tafakkurni ustuvor o‘ringa chiqardilar. Bu davrda obzor faqat asar tahlili emas, balki madaniy fikrni shakllantiruvchi jarayon sifatida qaraldi.

Jahon ilmiy tajribasida adabiy obzor — bu o‘ziga xos ilmiy yo‘l xaritasidir. Adabiy obzor orqali tadqiqotchi bir qator muhim ilmiy maqsadlarga erishadi. Avvalo, u mavjud manbalarni sinchiklab o‘rganish orqali tanlangan mavzuning qanchalik o‘rganilganini, qaysi jihatlar yetarlicha tahlil qilinganini va qaysilari esa e‘tibordan chetda qolganini aniqlaydi. Bu jarayon orqali tadqiqotchi o‘z oldiga qo‘yilgan muammoning ilmiy tarixini, ya‘ni shu mavzu yuzasidan ilgari qanday yondashuvlar mavjud bo‘lganini tushunib oladi.

Shuningdek, adabiy obzor ilgari yozilgan ishlarning natijalarini tahlil qilishga imkon beradi. Tadqiqotchi turli mualliflarning fikrlarini solishtiradi, ularning nazariy yondashuvlari, tahlil uslublari va xulosalarini baholaydi. Bu esa ilmiy muloqotni chuqurlashtirib, mavjud qarashlar orasidagi o‘xshashlik va tafovutlarni aniqlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, adabiy obzor orqali ilmiy bo‘shliqlar — ya‘ni hali yetarlicha o‘rganilmagan yoki e‘tibordan chetda qolgan masalalar — aniqlanadi. Shu tariqa tadqiqotchi o‘z ishining dolzarbligini asoslab, yangi yo‘nalish yoki yondashuv taklif qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Eng muhimi, adabiy obzor o‘z tadqiqoti uchun mustahkam nazariy asos yaratishga xizmat qiladi. Tadqiqotchi ilgari mavjud nazariyalar, metodlar va ilmiy yondashuvlardan foydalanib, o‘z ishini ilmiy mantiqqa tayanadi. Natijada, obzor ilmiy ishning poydevori, tadqiqotning mantiqiy yo‘nalishini belgilovchi va uni ilmiy jihatdan asoslovchi bosqich sifatida namoyon bo‘ladi. Adabiy obzorning mohiyati shundaki, u faqat manbalarni sanab chiqish emas, balki ularni o‘zaro solishtirib, tahlil asosida yangi tushuncha va konsepsiyalarni shakllantirishdir.

Adabiy obzor G‘arb adabiyotshunosligi tarixida mustaqil tanqidiy tafakkur shakllanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. U dastlab XIX asrda shakllanib, adabiy jarayonni tahlil qilish, yozuvchi ijodini baholash va zamon ruhi bilan bog‘lashning ilmiy-uslubiy shakliga aylandi.

XIX asr rus adabiyotida V. G. Belinskiy bu janrni shakllantirgan asosiy shaxslardan biridir. U obzorni “adabiy tafakkurning laboratoriyasi” deb atab, unda adabiyot, ijtimoiy muhit va falsafiy g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatgan. Belinskiyning obzorlari faqat bir asar yoki muallifni emas, balki butun davr adabiy tendensiyalarini yoritish, ularni xalq hayoti va ijtimoiy ong bilan bog‘lashga qaratilgan edi. Bu yondashuv g‘arbda obzorni tahliliy va ijtimoiy mazmunli janr sifatida qarash an‘anasini mustahkamladi.

Yevropa mamlakatlarida, xususan, Angliya adabiy obzor XIX asr oxiri — XX asr boshlarida jurnalistik tanqid orqali rivoj topdi. T. S. Eliotning “The Function of Criticism” (“Tanqidning asosi”) (1919) maqolasi bu borada muhim nazariy asos bo‘ldi [5.1919:B.134]. Eliot tanqidchi va obzorchi o‘rtasidagi chegarani belgilab, obzorni “mavjud bilimni tahlil qilish orqali yangi ilmiy qarashlar yaratish vositasi” sifatida talqin etgan. Unga ko‘ra, obzor yozuvchi yoki asar haqidagi fikrlarni takrorlash emas, balki ularni yangi badiiy-estetik kontekstda qayta o‘ylash jarayonidir.

XX asrda adabiy obzor ilmiy shaklga ega bo‘lib, universitetlar va ilmiy jurnallar doirasida keng rivojlandi. “Modern Language Review”, “PMLA” (Publications of the Modern Language Association), “The Times Literary Supplement”, “The Review of English Studies” kabi nufuzli nashrlar G‘arb adabiyotshunosligida obzor janrining uslubiy, strukturaviy va metodologik standartlarini belgilab berdi.

Bu jurnallarda chop etilgan obzorlar, odatda:

- mavjud ilmiy manbalarni tanqidiy tahlil qiladi;
- nazariy yondashuvlar o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklarni ko‘rsatadi;
- yangi ilmiy yo‘nalishlar uchun metodologik asos yaratadi;
- adabiy asarni zamonaviy nazariyalar — psixoanaliz, strukturalizm, postmodernizm, feministik

tanqid — kontekstda qayta ko‘rib chiqadi.

Bugungi kunda G‘arb adabiyotshunosligida adabiy obzor nafaqat ilmiy maqolaning kirish qismi, balki mustaqil tahliliy janr sifatida qaraladi. U tadqiqotchidan keng nazariy bilim, tanqidiy fikrlash va manbalarni kompleks tahlil qilishni talab etadi. Shu bois, adabiy obzor G‘arb ilmiy an‘analarida ilmiy tafakkur va ijodiy izlanishlar o‘rtasidagi bog‘lovchi ko‘priq sifatida baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, G‘arbdagi klassik obzor an‘analari adabiy tanqidni yangi bosqichga olib chiqdi — u oddiy sharhdan ilmiy tahlilga, individual fikrdan konseptual nazariyaga o‘tish jarayonini ta‘minladi. Shu sababli, bugungi kunda ham bu an‘analar jahon adabiyotshunosligining nazariy va metodologik asoslarini tashkil etishda muhim o‘rin tutadi.

Adabiy obzor G‘arb ilmiy tafakkurida nafaqat ilmiy ishning kirish qismi, balki mustaqil tahliliy va nazariy faoliyat sifatida qaraladi. U ilmiy izlanishning mantiqiy poydevorini yaratadi, mavjud manbalarni tanqidiy baholaydi hamda yangi ilmiy g‘oyalar uchun konseptual asos tayyorlaydi. Shu bois adabiy obzorning nazariy asoslari uch yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: tahliliy, nazariy va metodologik.

Tahliliy asosda tadqiqotchi mavjud ilmiy manbalarni tanqidiy o‘rganadi, ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlaydi, o‘xshashlik va tafovutlarini tahlil qiladi. Bu jarayon oddiy bibliografik sharhdan farq qiladi, chunki obzor manbalarni faqat sanab o‘tmay, ularning o‘zaro bog‘liqligi va ilmiy ahamiyatini ochib beradi. Masalan, bir asarni turli nazariy yondashuvlar — sotsiologik, psixanalitik yoki postkolonial tahlil asosida o‘rganish orqali obzor ilmiy tafakkurdagi oqimlarning rivojlanish darajasini ko‘rsatadi.

Nazariy asos esa tadqiqot uchun konseptual poydevor yaratadi. Obzorda muallif o‘z mavzusi doirasida qanday nazariy modelni tanlashini, qaysi ilmiy yondashuvni qo‘llashini belgilaydi. Bu bosqichda obzor tadqiqot mavzusiga oid nazariy tushunchalar, badiiy-estetik tamoyillar va tanqidiy qarashlarni yoritadi. Nazariy obzor mavjud adabiy fikrlarni qayta talqin etish, turli nazariy maktablar o‘rtasida muloqot yaratish imkonini beradi. Shu jihatdan obzor tadqiqotchining ilmiy pozitsiyasini aniqlaydi va uning konseptual yondashuvini mustahkamlaydi.

Metodologik asos obzorning uchinchi, lekin eng muhim qatlamidir. U ilmiy yondashuvlar orasidagi bog‘liqlikni, ularning tadqiqot jarayonidagi o‘rni va samaradorligini aniqlaydi. Metodologik tahlil orqali muallif qaysi metodlar tadqiqot uchun eng to‘g‘ri ekanini, ularning amaliy natijalari qanday bo‘lishini ko‘rsatadi. Masalan, bir mavzuni strukturaviy, intertekstual yoki komparativ yondashuv orqali o‘rganishdagi farqlarni tahlil etish obzorni ilmiy yo‘l xaritasiga aylantiradi.

Chris Hart o‘zining “*Doing a Literature Review*” (“Adabiy obzorning bajarilishi”) (2018) asarida adabiy obzorni “tadqiqot tafakkurini harakatga keltiruvchi mexanizm” [6. 2018:B.111] deb ta’riflaydi. Uning fikricha, obzor — bu mavjud fikrlar o‘rtasidagi muloqot bo‘lib, yangi ilmiy qarashlar aynan shu dialog jarayonida paydo bo‘ladi. Hartning yondashuvida obzor oddiy axborot yig‘indisi emas, balki ilmiy tafakkurni shakllantiruvchi ijodiy jarayon sifatida qaraladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiy obzorning nazariy asoslari — bu ilmiy tafakkurning tahliliy, nazariy va metodologik uyg‘unligidan tashkil topgan murakkab tizimdir. U tahlil orqali mavjud bilimni tartibga soladi, nazariya orqali konseptual asos yaratadi va metodologiya orqali ilmiy izlanishning yo‘nalishini belgilaydi. Shu tariqa adabiy obzor ilmiy fikrni rivojlantiruvchi, yangi g‘oyalar uchun zamin yaratadigan jarayon sifatida adabiyotshunoslikdagi muhim nazariy asosga aylanadi.

G‘arb tajribasida adabiy obzor bir necha shakllarda uchraydi:

- Narrativ obzor — asar yoki davr haqida umumiy, hikoya shaklidagi tahlil;
- Tizimli obzor — manbalarni mezonlar asosida saralab, ularni qiyosiy tahlil qilish;
- Integrativ obzor — turli yondashuvlarni birlashtiruvchi shakl;
- Metaanalitik obzor — ko‘plab tadqiqotlar natijasini statistik asosda umumlashtirish.

Bu turlar har biri ilmiy tadqiqot maqsadiga qarab tanlanadi. Dissertatsiyalar odatda tizimli va integrativ obzor turiga tayanadi.

Bugungi jahon adabiyotshunosligida adabiy obzor ko‘plab nazariy paradigmalarga asoslanadi:

• Postkolonial tahlil (E. Said, H. Bhabha) – adabiyotdagi madaniy hukmronlik va mustaqillik masalalarini ochib beradi.

• Gender yondashuvi (V. Woolf, E. Showalter) – ayol tajribasining adabiy ifodasini o‘rganadi.

• Postmodern yondashuv (L. Hutcheon, J. Derrida) – matnlaro aloqalar, ironik tafakkur va ko‘plik tushunchasini markazga qo‘yadi.

• Sotsiologik yondashuv (P. Bourdieu) – adabiyotning ijtimoiy maydondagi o‘rnini tahlil qiladi.

Bu yondashuvlar obzor janrini faqat tarixiy emas, balki nazariy-tahliliy asosda boyitadi.

Bugungi kunda adabiy obzor (literature review) ilmiy izlanishning ajralmas qismi sifatida tan olingan. U nafaqat tadqiqot uchun ma’lumot to‘plash, balki ilmiy tafakkurni shakllantirish, yangi g‘oya va yo‘nalishlarni belgilash vositasidir. Shu sababli, G‘arb universitetlarida adabiy obzor yozish *maxsus ilmiy ko‘nikma* sifatida o‘qitiladi.

Jo Ekkel — “*StudyCrumb*” ta’limiy platformasi asoschisi — bu borada shunday deydi: “Sifatli adabiy obzor — bu ilmiy ishning yuragi”. Ya’ni, agar ilmiy ish inson tanasiga o‘xshatilsa, uning yuragi aynan obzor bo‘ladi, chunki u butun tadqiqotga hayot baxsh etadi. Obzor mavjud ilmiy manbalarni o‘rganish bilan birga, tadqiqotchi uchun yangi savollarni paydo qiladi, ilmiy muammoni aniqlashtiradi va unga yo‘nalish beradi.

Shu sababli, har bir ilmiy ishda adabiy obzor quyidagi uchta muhim vazifani bajaradi:

1) Tadqiqot mavzusining dolzarbligini isbotlaydi

Adabiy obzor orqali tadqiqotchi o‘z mavzusining qanchalik o‘rganilganini, qaysi jihatlar hali ochilmaganini aniqlaydi. Bu esa tanlangan mavzu zamonaviy ilmiy muhitda dolzarb ekanini asoslash imkonini beradi. Masalan, ilgari o‘rganilmagan yoki turlicha talqin qilingan masalalarni tahlil qilib, tadqiqotchi o‘z ishining yangiligini ko‘rsatadi.

2). Nazariy asosni shakllantiradi

Obzor tadqiqotning ilmiy poydevorini yaratadi. U orqali muallif o‘z ishida qanday nazariy yondashuv va metodlardan foydalanishini belgilab oladi. Boshqacha aytganda, adabiy obzor ilmiy fikrni tizimga soladi, muallifning izlanish yo‘nalishini aniq qiladi va tadqiqotning mantiqiy asosini mustahkamlaydi.

2) . Ilmiy yangilikka yo‘l ochadi

Eng muhim jihatlardan biri — adabiy obzor yangi ilmiy g‘oyalar uchun zamin yaratadi. Tadqiqotchi mavjud adabiyotlarni tahlil qilib, ulardagi kamchilik yoki bo‘shliqlarni ko‘radi va shu asosda yangi savol yoki yo‘nalish taklif etadi. Shu tarzda obzor oddiy sharh emas, balki yangilik sari yetaklovchi ilmiy bosqichga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, adabiy obzor — bu ilmiy ishning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. U tadqiqot mavzusini asoslaydi, nazariy asosni belgilaydi va ilmiy yangilikni yuzaga keltiradi. Shu sababli, zamonaviy ilmiy amaliyotda obzor yozish nafaqat texnik topshiriq, balki mustaqil fikrlash va ilmiy tahlil madaniyatining eng muhim ko‘rinishi hisoblanadi.

Jahon adabiyotida adabiy obzor — bu nafaqat ilmiy ishning tarkibiy qismi, balki ilmiy tafakkurning markaziy shakli, tanqid va nazariyaning uyg‘unlashgan ko‘rinishidir. U adabiyotshunoslikni faqat asarlarni tahlil qilish darajasida emas, balki g‘oyalar, konsepsiyalar va ilmiy yondashuvlar o‘rtasidagi muloqot sifatida talqin etadi. Shu bois adabiy obzor tadqiqotchi uchun yo‘l xaritasi, nazariy poydevor va fikrlash metodiga aylanadi.

G‘arb ilmida bu janr XVIII asrdan boshlab shakllangan bo‘lib, dastlab tanqidiy maqola yoki jurnalistik tahlil shaklida namoyon bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan u mustaqil ilmiy yo‘nalishga aylandi — manbalarni tahlil qilish, fikrlarni solishtirish, yangi g‘oyalarni ishlab chiqishning ilmiy asosiga aylandi. XIX–XX asrlarda esa adabiy obzor ilmiy metodologiya darajasiga ko‘tarilib, ilmiy tadqiqotning ajralmas qismiga aylandi.

Bugungi kunda adabiy obzor *global ilmiy tafakkurda markaziy o‘rin* tutadi. U ilmiy izlanishlarni tartibga solish, manbalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochish, ilmiy bo‘shliqlarni aniqlash va yangi yo‘nalishlarni belgilash vazifalarini bajaradi. Shu orqali u adabiyotshunoslikni doimo yangilanishga undaydi, tanqidiy fikrlash madaniyatini rivojlantiradi va ilmiy ijodning sifatini belgilaydi.

Adabiy obzor — bu ilmiy tafakkurning yuragi, tadqiqotning asosiy mexanizmi va adabiyotshunoslikning nazariy hamda amaliy harakatlantiruvchi kuchidir. U har bir tadqiqotchi uchun yo‘l ko‘rsatkich, nazariy tayanch va yangi g‘oyalar sari yo‘naltiruvchi vosita sifatida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, zamonaviy adabiyotshunoslikda adabiy obzor yozish madaniyati — bu ilmiy fikr yetukligining, metodologik savodxonlikning va ijodiy tafakkurning eng muhim ko‘rsatkichidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Arnold, M. (1865). *Essays in Criticism*. London: Macmillan and Co.
2. Belinsky, V. G. (1953). *Selected Philosophical Works* (Vol. 1–2). Moscow: Foreign Languages Publishing House.
3. Bourdieu, P. (1993). *The Field of Cultural Production: Essays on Art and Literature*. Cambridge: Polity Press.
4. Derrida, J. (1976). *Of Grammatology*. Baltimore: Johns Hopkins University Press.
5. Eliot, T. S. (1919). *The Function of Criticism*. London: Faber & Faber.
6. Hart, C. (2018). *Doing a Literature Review: Releasing the Social Science Research Imagination*. London: SAGE Publications.
7. Hutcheon, L. (1988). *A Poetics of Postmodernism: History, Theory, Fiction*. New York: Routledge.
8. Poe, E. A. (1846). *The Philosophy of Composition*. *Graham’s Magazine*, 28(4), 163–167.
9. Sainte-Beuve, C. A. (1851). *Causeries du lundi* (Vol. 1–15). Paris: Garnier Frères.
10. Said, E. W. (1978). *Orientalism*. New York: Pantheon Books.
11. Showalter, E. (1985). *The New Feminist Criticism: Essays on Women, Literature, and Theory*. New York: Pantheon Books.

12. Woolf, V. (1929). *A Room of One's Own*. London: Hogarth Press.
13. *The Monthly Review* (1749–1845). London: R. Griffiths.
14. *The Critical Review* (1756–1817). London: Archibald Hamilton.
15. *Modern Language Review* (1905–present). Cambridge: Modern Humanities Research Association.
16. *PMLA: Publications of the Modern Language Association of America* (1884–present). New York: MLA.
17. *The Times Literary Supplement* (1902–present). London: The Times.
18. *The Review of English Studies* (1925–present). Oxford: Oxford University Press.